



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI



**13-14
MAY
2022**

**“BOSHLANG‘ICH VA
MAKTABGACHA TA‘LIM
SIFATI VA SAMARADORLIGINI
OSHIRISH MUAMMOLARI:
INNOVATSIYA, RAQAMLI
TEXNOLOGIYALAR VA
XALQARO
TAJRIBALAR”**


**Respublika ilmiy-amaliy
anjumani**

Buxoro - 2022



OPEN  ACCESS





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rizoqulovna N. D. The Study of Parts of Speech in the Lessons of the Russian Language in Primary Grades //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – Т. 12. – С. 407- 412.
2. Амонов У. С. Научный подход а. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
3. O.R.Avezov. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies. American journal of social and humanitarian research 3 (No. 1), 546-550
4. Adizova Nigora, Adizova Nodira, Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.
5. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." *Middle European Scientific Bulletin* 10 (2021).
6. Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве //european research. – 2020. – С. 132-134. 10.Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
- 11.Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils 'knowledge based on the qualitolological approach. *Academica: An International Multidisciplinary Research Journal* <https://saarj.com>.2020. 321-326.
- 12.Hayitov H. A. Qushlarga ibrat-hazrati xizr! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
- 13.Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel" Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*
- 14.Xudoyberdiyeva N. Abdulla Qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi: DOI: 10.53885/edinres. 2021.33. 43.090 Nodira Xudoyberdiyeva, BuxDU o'qituvchisi //Научно- практическая конференция. – 2022.
- 15.<https://www.sadlier.com/school/ela-blog/creative-ways-to-teach-parts-of-speech-in-middle-school-and-high-school>

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BOLALAR KITOBXONLIGINING O'RNINI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6567403>

Habibova Kumushoy Hamidovna,
BuxDUPI 1-kurs magistranti
Vohidova Saodat Husenovna,
Buxoro viloyat Vobkent tuman
4-maktab kutubxona mudirasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, zamonaviy maktabda bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishdagi muhim vazifalar ko'rsatib o'tilgan, yoshlarning mutolaa madaniyati haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Tayanch soʻzlar: taʼlim, bolalar kitobxonligi, kitobni sevis, mutolaa madaniyati, samaradorlik, natija.

Bugungi kunda yurtimizda barcha soha va yoʻnalishlarda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va anʼanalarni chuqur qaror toptirishga, ayniqsa, yosh avlodning maʼnaviy-intelektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuygʻusi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega boʻlgan kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning „Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻib qilish boʻyicha kompleks chora- tadbirlar dasturi toʻgʻrisida”gi PQ-3271 sonli Qarori bu yoʻnalishda tegishli huquqiy-meʼyoriy bazani mustahkamlashda, tashkiliy-amaliy ishlarni zamon talablari asosida olib borishda muhim hujjat boʻldi. Dasturda belgilangan ustuvor vazifalardan biri kitob mutolaasi va kitob madaniyatini oshirishga doir targʻibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targʻibotchilar oʻrtasida “Eng kitobxon maktab”, “Eng kitobxon oila”, “Eng faol kutubxonachi” kabi koʻrik tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini yuqori saviyada oʻtkazishni yoʻlga qoʻyish.

Darhaqiqat, yurtimizda kitob mutolaasiga eʼtiborning bunday siyosiy darajaga olib chiqilgani bejiz emas. Dunyoda rivojlangan mamlakatlar koʻp. Lekin statistikaga eʼtibor beradigan boʻlsak eng koʻp kitob oʻqiydigan yaʼni mutolaa darajasi yuqori boʻlgan, taʼlim tizimi sifatli boʻlgan mamlakatlar bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar hisoblanadi. Biror bir mamlakat yoʻqki kitob mutola darajasi past boʻlib rivojlanish darajasi yuksak boʻlsin. Rivojlangan mamlakatlarning taʼlim tizimi, kitob mutolasiga bir nazartashlasak:

Singapur maydoni jihatdan juda kichik mamlakat. Lekin tovar aylanmasi boʻyicha Xitoyga yetib olmoqda. Korrupsiya darajasi eng past mamlakatlardan biri hisoblanadi. Botqoqliklardan iborat mamlakat 30 yil ichida shunday rivojlandiki, dunyoda eng yuqori natijalarga erishdi. Xoʻsh, bu nimaning hisobiga? Singapur taʼlim tizimi davlat siyosatining eng muhim boʻgʻiniga aylantirilgan. Davlat budjetining 20 foizi taʼlimga yoʻnaltiriladi. Ilmga, kitob oʻqishga qiziqish juda yuqori. Singapurning 30 yil ichida qanchalik rivojlanganini quyidagi rasmlardan ham koʻrsak boʻladi.

Сингапур 15 феврал 1974 йил



11 май 2015 йил



1950-йиллар



25 май 2015 йил



Taʼlim tizimi rivojlangan mamlakatlardan yana biri Yaponiya. Dunyoda shunday mamlakatlar borki, ularda baʼzi savollar mantiqsiz hisoblanar ekan. Yaponiyada shunday savollardan biri “Kitob oʻqimagan kuningiz bormi?” degan savol ekan, yaʼni ularga bu savol juda gʻayritabiiy tuyular ekan. Ular kitob oʻqilmagan kunni umuman tasavvur qilolmas ekan. Quyidagi rasmda Yaponiyadagi uzundan uzun navbatni koʻrishimiz mumkin. Bu navbat oziq-ovqat yoki biror boshqa mahsulotga emas kitob sotib olish uchun boʻladigan navbat.



O‘zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir kitob va kitobxonlik haqida to‘xtalib shunday degan edi “Umrim davomida inkor qila olmaydigan haqiqatim shuki, kichkintoylarning to‘g‘ri yo‘lni topib dunyoqarashini shakllantirish, axloq-odobini yo‘lga solishda kitobdanda muhimroq narsa yo‘q ekan, shuning uchun ham ota-onalarning birinchi vazifasi o‘z farzandida kitobga mehr uyg‘otish deb bilaman. Gohida fan-texnika tufayli adabiyotga e‘tibor susayyapti degan gaplarni eshitib qolamiz. Menimcha, go‘zallikka ehtiyoj tuyg‘usi bor ekan, san‘at asarlari ham o‘zining bahosini hech qachon yo‘qotmaydi. Shu bois kitobga ixlos bilan qaraydigan, uni shavq bilan o‘qiydiganlar soni ortib borayotganini ko‘rish quvonarlidir”. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar saviyasining o‘shishida, shu jumladan, kitobxonlik madaniyatining shakllanishida, albatta, o‘qituvchining roli katta. Ustozlar faqatgina kitob o‘qinglar, kitobfoydali deb uqtiribgina qolmasdan, avvalo, o‘zlari bunda o‘rnak bo‘lishi lozim. Bolalarning kitobga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish jarayonini oiladan boshlasak ijobiy natijalarga erishamiz va maktab bilan oila hamkorligini davom ettirsak samarali natijalarga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амонов У. С. Научный подход А. Фитрата к пословицам // Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5
2. O.R.Avezov. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies. American journal of social and humanitarian research 3 (No. 1), 546-550
3. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences. 4.Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." *Middle European Scientific Bulletin* 10 (2021).
5. Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве // European research. – 2020. – С. 132-134.
7. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter “Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools // www.auris-verlag.de. – 2017.
8. Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils 'knowledge based on the qualitological approach. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* <https://saarj.com>.2020. 321-326.
9. Hayitov H. A. Qushlarga ibrat - hazrati Xizr! // *Интернаука*. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
10. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel " Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*
11. Xudoyberdiyeva N. Abdulla Qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi: DOI: 10.53885/edinres. 2021.33. 43.090 // *Научно-практическая конференция*. – 2022.
13. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., va b. *Ona tili o‘qitish metodikasi*. –T.:Noshir 2009
14. Bakiyeva H. *Boshlang‘ich sinflarda so‘z ustida sihlash metodikasi*.-T.: Istiqlol 2003
15. Matchonov S. *Adabiy ta‘lim tizimini texnologiyalashtirish va badiiy estetik tafakkur muammolari*. Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy axborotlar. 2020.



1930

**BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI**

BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI: INNOVATSIYA, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XALQARO TAJRIBALAR



OPEN  ACCESS

BUXORO 2022